

7-SINF TARBIYA. ChSB - 1. Original variant

Sana: _____ Sinf _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar” hikmati qanday mazmunni o‘zida ifodalagan?(B-2 ball)

- A) Mehnatning qadri B) Ezgulik va yovuzlikning jamiyatga ta'siri
C) Boshqaruv san'ati D) Ilmning ahamiyati

2. Inson maqsadiga qanday holatda erisha oladi? (B-2ball)

- A) Maqsadiga ko'zi yetsa B) Boylikka ega bo'lsa
C) Begonalar yordam bermasa D) Sabrsiz bo'lsa

3. Yaxshi natija, erishilgan yutuq yoki biror ishda qozonilgan g'alaba qanday ataladi? (B-2 ball)

- A) Umid B) Orzu C) Muvaffaqiyat D) Tadqiqot

4. Amir Temur ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishini ming-minglab tadbirsiz va yana qanday toifadagi kishilardan yaxshiroq ekanligini ta'kidlagan? (B-2 ball)

- A) Donishmand kishidan B) Loqayd kishidan
C) Halol kishidan D) Ilmli kishidan

5. Zaharli kimyoviy moddalarning atrof-muhitda barqarorligi va doimiy ko'chib yurishi qanday zararli holatlarni keltirib chiqarmoqda? (Q-2,8 ball)

- A) O'simlik va hayvonot dunyosini boyitmoqda
B) Transport vositalariga zarar keltirmoqda
C) Insonlar salomatligiga katta zarar keltirmoqda
D) Axborot texnologiyalariga zarar keltirmoqda

6. Do'stlaringiz bilan uchrashuvda turibsiz. Ularning har biri o'zini turlicha tutmoqda. Ular amalga oshirayotgan qaysi xatti-harakatlar eng yaxshi insoniy fazilatlar sifatida baholanadi? (Q-2,8 ball)

- 1) Biri doimo tabassum qilib, suhbatga ilqlik bag'ishlamoqda.
2) Biri esa o'zini haddan tashqari maqtaydi.
3) Yana biri shirin so'zlar bilan muhitni yanada yoqimli qilmoqda.
4) To'rtinchisi xushmuomalalik bilan barchaga e'tibor ko'rsatmoqda.
5) Beshinchisi suhbat orasida boshqalar haqida g'iybat qilmoqda.
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 4 D) 2, 4, 5

7. Quyidagilardan axloq qoidalarini ajrating.(Q-2,8 ball)

- 1) O'zingizga ravo ko'rgan narsalarni boshqalarga ham ravo ko'ring.
2) Xolis odamlarni tinglang;
3) G'azablanganda ko'proq gapiring;
4) O'z hayotingizni doim boshqalarniki bilan solishtiring;
5) Xatti-harakatlaringiz boshqalarga qanday ta'sir qilishi haqida o'ylamang.
A) 1, 5 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 2

8. Quyidagi qaysi xatti-harakatlar insonning ijobiy axloqiy fazilatlarini hisoblanadi? (Q-2,8 ball)

- 1) Doimo rostgo'ylik bilan gapirish va va'dasiga sodiq qolish;

- 2) Ba'zan boshqalar haqida asossiz yomon gaplar tarqatish;
- 3) Barchaga hurmat bilan muomala qilish;
- 4) Yolg'on va makrni ishlata olish;
- 5) Samimiy va xushfe'l bo'lish.

A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 4 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 5

9. Inson hayotida g'animat deb bilishi lozim bo'lgan va uni ogohlikka chorlovchi quyidagi fikrlarni to'g'ri moslashtiring. (Q-2,8 ball)

1. Bemor bo'lishdan avval - ...	a) sog'liqni
2. Keksalikdan avval - ...	b) go'zallikni
3. Faqirlikdan avval -	c) yoshlikni
	d) boylikni

A) 1-a, 2-b, 3-d B) 1-a, 2-c, 3-d C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-d, 2-a, 3-c

10. Bir o'quvchi murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, o'z hissiyotlarini boshqarish va boshqalarga namuna bo'lishni istaydi. U buning uchun muntazam ravishda yangi bilimlar o'rganmoqda. Sizningcha, uning bilim o'rganishidagi asosiy maqsadi qaysi ijobiy axloqiy fazilatni rivojlantirishga qaratilgan? (Q-2,8 ball)

- A) Nafsini boshqarish va o'z ustida ishlash
- B) Ko'proq boylik va mol-dunyo yig'ish
- C) Hashamatli hayot kechirish
- D) Odamlar ustidan hukmron bo'lish

11. O'smirlarning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, zehn pasayishi va xotiraning yomonlashishiga olib keluvchi salbiy illatni aniqlang. (Q-2,8 ball)

- A) Tamaki chekish B) Sport bilan shug'ullanishni kamaytirish
- C) Ko'p kitob o'qish D) Musiqa tinglash

12. Agar suhbat vaqtida birovning gaplari sizga og'ir botayotgan bo'lsa, quyidagi qaysi harakatni amalga oshirish eng to'g'ri hisoblanadi? (Q-2,8 ball)

- A) Zudlik bilan javob qaytarish B) Jim turib, holatni yumshatish
- C) Ustidan kulish D) Suhbatni keskin to'xtatish

13. O'g'ridan qo'rqma, nari borsa molingni olar, qotildan qo'rqma, nari borsa joningni olar. Ammo ..., ... dan qo'rq, chunki u ikkisiga yo'l qo'yib berar. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni aniqlang. (Q-2,8 ball)

- A) ilmsiz, begunoh B) befarq, loqayd C) xasis, baxil D) faqir, yolg'onchi

14. Ogohlik talablari to'g'ri bajarilgan harakatlarni aniqlang. (Q-2,8 ball)

- 1) Haydovchi quyuq tuman vaqtida tezligini kamaytirib, tumanga mos chiroqlarni yoqdi.
- 2) Ziyoda svetoforni yashil chirog'i yonganidan keyingina yo'lni kesib o'tdi.
- 3) Gulnoza mahalladagi voqealarga e'tibor bermaslikka harakat qiladi
- 4) Olimjon mashinasida ogohlantiruvchi belgilarni ko'rmay, telefonga qarab harakat qildi.

A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 3, 4

15. Akmal qattiq tumov bo'lib qoldi. Maktabga kelganida maktab hamshirasi unga niqob taqish lozimligini aytib, tezda shifokorga ko'rinishi zarurligini ta'kidladi. Akmal bu gapga e'tiborsizlik qildi. Natijada, hafta davomida isitmalab uydan chiqa olmadi. Akmal qanday xatolarga yo'l qo'ydi va uning oqibati nimaga olib keldi? (M - 4 ball)

- A) Hamshiraga e'tibor bermadi, shuning uchun kasalligi yengillashdi va maktabga borishda muammo bo'lmadi.
- B) Hamshiraning tavsiyalarni nazarga ilmadi, natijada isitmalab bir hafta uyda qoldi.
- C) Shifokorga bordi, lekin dori qabul qilmasligi sababli kasalligi uzoq davom etdi.
- D) Niqob taqdi, ammo uyda qolishni istagani uchun maktabga bormadi.